

Yashil investitsiyalar va yashil iqtisodiyot sharoitida O‘zbekistonda ish bilan bandlik imkoniyatlarini kengaytirish

Bobojonov To‘lqinbek Maxmud o‘gli²³⁵

Kirish. So‘nggi yillarda global iqtisodiyotning ekologik barqarorlik tamoyillariga asoslangan rivojlanish modeliga o‘tishi natijasida yashil iqtisodiyot atamasi xalqaro siyosiy, ilmiy va iqtisodiy kun tartibining markaziga aylandi. Xususan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan ilgari surilgan 2030-yilgacha mo‘ljallangan “Barqaror rivojlanish maqsadlari”ning 8- va 9-maqsadlari bevosita yashil iqtisodiyotni shakllantirish va barqaror bandlikni ta’minlashga qaratilgan.²³⁶ Yashil iqtisodiyot nafaqat ekologik inqirozlarni yumshatish, balki yangi iqtisodiy sektorlarda ish o‘rinlarini yaratish, ijtimoiy tenglikni mustahkamlash va mehnat bozorining sifatini oshirish vositasi sifatida ko‘rilmoqda. Ushbu tezisda O‘zbekistonda yashil iqtisodiyot sharoitida bandlik imkoniyatlarini kengaytirish yo‘nalishlari, mavjud holat va strategik takliflar asosida tahlil qilinadi.

Adabiyotlar sharhi. Xalqaro mehnat tashkiloti (ILO) tomonidan e‘lon qilingan “Greening with Jobs” hisobotida, yashil iqtisodiyotga o‘tish global mehnat bozorida salmoqli o‘zgarishlarni yuzaga keltirishi, 2030-yilgacha kamida 24 million yangi ish o‘rni yaratilishi mumkinligi ta’kidlangan.²³⁷ Ayniqsa, qayta tiklanuvchi energiya, ekologik transport, chiqindilarni qayta ishlash, suv resurslarini boshqarish kabi sohalarida bandlik jadal o‘smoqda. OECD (2021) tahlillariga ko‘ra²³⁸, yashil o‘tish bilan bog‘liq transformatsiya ijobiy natijalar berishi uchun ta’lim va malaka oshirish tizimi dolzarb ahamiyat kasb etadi. UNEP (2011) tomonidan tayyorlangan “Towards a Green Economy” hisobotida esa yashil iqtisodiyot nafaqat rivojlangan, balki rivojlanayotgan davlatlar uchun ham uzoq muddatli iqtisodiy va ekologik barqarorlikka erishish yo‘li sifatida ko‘rsatilgan.²³⁹ Yevropa Ittifoqining “Green Deal” dasturida²⁴⁰ yashil transformatsiya orqali yangi sanoat tarmoqlari shakllanishi va mehnat bozorida sezilarli o‘zgarishlar ro‘y berishi e‘tirof etilgan. Bundan tashqari, Janubiy Koreya, Germaniya, Kanada kabi davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, yashil sektorlarning rivojlanishi davlat tomonidan sarmoyaviy qo‘llab-quvvatlash, ekologik mehnat qonunchiligini kuchaytirish va ta’lim tizimiga ekologik kompetensiyalarni integratsiya qilish orqali amalga oshirilmoqda. **Tadqiqot metodikasi.** Mazkur maqola O‘zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlari,

²³⁵ Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, “Mehnat iqtisodiyoti” kafedrasida tayanch doktoranti

²³⁶ <https://sdgs.un.org/goals>

²³⁷ International Labour Organization (ILO), 2018. World Employment and Social Outlook 2018: Greening with Jobs. Geneva: International Labour Office.

²³⁸ Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD), 2021. Green Growth Strategy: Employment and Skills in a Low-Carbon Economy. Paris: OECD.

²³⁹ United Nations Environment Programme (UNEP), 2011. Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication. Nairobi: UNEP.

²⁴⁰ European Commission, 2019. The European Green Deal. Brussels: European Commission.

xususan PQ-436 qarori²⁴¹, Prezident Farmonlari, ILO, IRENA, OECD, UNEP va Jahon banki kabi tashkilotlarning ochiq manbalariga asoslanadi. Shuningdek, muallif tomonidan ishlab chiqilgan konseptual model asosida tahliliy va solishtirma yondashuvlardan foydalanilgan. Tadqiqotda 2020–2024-yillar oralig‘idagi rasmiy ma’lumotlar, hukumat dasturlari, strategik hujjatlar va xalqaro tajribalar o‘rganildi. Tahlil qilinayotgan holatlar, tavsiyalar va natijalar ijtimoiy-iqtisodiy indikatorlar asosida asoslangan.

Natijalar va tahlil. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrda PQ-436 qarori bilan 2030-yilgacha 15 GVt quvvatga ega bo‘lgan quyosh va shamol elektr stansiyalarini qurish rejalashtirilgan. IRENA tomonidan taqdim etilgan hisob-kitoblarga ko‘ra, har 1 GVt quvvatli qayta tiklanuvchi energiya loyihasi 1000 dan 3000 gacha doimiy, 10 000 gacha vaqtinchalik ish o‘rinlarini yaratishi mumkin. Demak, O‘zbekiston uchun bu ko‘rsatkichlar umumiy hisobda 45 000 doimiy va 150 000 vaqtinchalik ish o‘rni deganidir. Bundan tashqari, “Yashil Makon” milliy loyihasi doirasida 458 ming gektar yer maydonida o‘rmonzorlar barpo etish orqali daraxt ekish, parvarish qilish, monitoring kabi yo‘nalishlarda mahalliy aholi uchun minglab mavsumiy va doimiy ish o‘rinlari yaratilmoqda. Bu kabi yirik ekologik tashabbuslar O‘zbekiston mehnat bozorining tarkibiy jihatdan diversifikatsiyalashuviga xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi”da bandlik sohasiga oid asosiy yo‘nalishlar sifatida qayta tiklanuvchi energiya sohasida kasbiy tayyorgarlikni kuchaytirish, ekologik toza sanoat tarmoqlarini kengaytirish, iqtisodiyotning dekarbonizatsiyasiga mos keluvchi yangi kasblarni joriy etish, mehnat bozori ishtirokchilarining ekologik ongini oshirish va ekologik innovatsiyalarni tatbiq etish belgilab berilgan. Shuningdek, “Yashil Makon” va “Orolbo‘yi” mintaqaviy loyihalari doirasida qishloq hududlarida yashil bandlik imkoniyatlari kengaytirilmoqda.

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatmoqdaki, yashil iqtisodiyotning rivojlanishi nafaqat yangi kasblarning paydo bo‘lishi, balki mavjud kasblarning qayta malakalanishi, ishchilarning yangi texnologiyalar va ekologik me‘yorlarga moslashishi orqali bandlikni sifat jihatidan ham yaxshilaydi. OECD (2021) ma’lumotlariga ko‘ra, yashil transformatsiyani muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun kasbiy ta’lim muassasalari va oliy o‘quv yurtlari tomonidan ishlab chiqilayotgan dasturlar amaliy ko‘nikmalarga asoslanishi lozim. Shu nuqtai nazardan, kasb-hunar o‘quv yurtlarining texnik imkoniyatlarini kengaytirish, ekologik sohalar bo‘yicha yangi o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va ishchi kuchining kompetensiyasini oshirish zarur hisoblanadi.

²⁴¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 02.12.2022 yildagi PQ-436-son, 2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida.

Mehnat bozori va yashil iqtisodiyotning integratsiyasi natijasida yangi kasblar shakllanmoqda. ILO va WEF hisobotlarida qayta tiklanuvchi energiya bo‘yicha muhandislar, ekologik qurilish bo‘yicha loyihalovchilar, chiqindilarni boshqarish texniklari, atrof-muhit mutaxassislari kabi kasblarning bandlik strukturasi o‘zgarib borayotgani ko‘rsatilgan. Shu bilan birga, mavjud kasblarning aksariyati ham yashil texnologiyalarni o‘zlashtirishni talab qilmoqda. Masalan, quruvchilar, transport sohasidagi ishchilar, qishloq xo‘jaligi xodimlari va sanoat ishchilari uchun energiya samaradorligini oshirish, chiqindilarni kamaytirish, uglerod izini nazorat qilish kabi ko‘nikmalar muhim ahamiyatga ega bo‘lmoqda. Yashil iqtisodiyotning muvaffaqiyati aholining ushbu sohalarga bo‘lgan qiziqishini oshirish, ijtimoiy axborot kompaniyalari, mahalliy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va gender tengligini ta‘minlovchi bandlik siyosatiga ham bog‘liq.

Xulosa va tavsiyalar. Yashil iqtisodiyot nafaqat ekologik barqarorlikni ta‘minlash, balki O‘zbekiston mehnat bozorining yangi talablariga moslashuvchanligini oshirishga xizmat qiladigan strategik yo‘nalishdir. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, mamlakatda yashil investitsiyalarni kengaytirish, davlat-xususiy sheriklik asosida ekologik loyihalarni moliyalashtirish, malaka oshirish tizimini takomillashtirish va ijtimoiy himoyani kuchaytirish orqali bandlikning sifati va miqdorini oshirish mumkin. Yashil iqtisodiyotga oid maxsus reyestrlarni yaratish, kasb-hunar ta‘limini modernizatsiya qilish, ekologik tadbirkorlikni rag‘batlantirish, ayollar va yoshlar uchun mos sharoitlar yaratish orqali yashil transformatsiya mehnat bozori ishtirokchilarining salohiyatini to‘liq namoyon etishiga xizmat qiladi. O‘zbekistonning iqlim, demografik va iqtisodiy sharoitlariga mos bo‘lgan yashil bandlik modelini ishlab chiqish – uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikka erishish uchun muhim yo‘nalish hisoblanadi.

Bundan tashqari, xalqaro tajriba asosida ekologik soliq islohotlari orqali yashil sektorlar faoliyatini moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini yaratish lozim. Ushbu tavsiyalarning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi O‘zbekistonning yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonini tezlashtirib, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **International Labour Organization (ILO), 2018.** *World Employment and Social Outlook 2018: Greening with Jobs.* Geneva: International Labour Office.
2. **Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD), 2021.** *Green Growth Strategy: Employment and Skills in a Low-Carbon Economy.* Paris: OECD.
3. **United Nations Environment Programme (UNEP), 2011.** *Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication.* Nairobi: UNEP.

4. **International Renewable Energy Agency (IRENA), 2023.** *Renewable Energy and Jobs – Annual Review 2023*. Abu Dhabi: IRENA.
5. **European Commission, 2019.** *The European Green Deal*. Brussels: European Commission.
6. **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, 2022.** PQ-436-son qarori: O‘zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar.

ISSUES OF REDUCING TAX DEBT THROUGH DIGITALIZATION

Hakimov Ulug‘bek Furqat o‘g‘li²⁴²

Today, along with supporting business entities in the further development of our country’s economy and ensuring macroeconomic stability, the measures being implemented in the field of digitalization of the tax system, in particular tax administration, are of great importance.

The tax system is one of the oldest means of ensuring fiscal, economic and social functions of the state and based on the specific characteristics of taxpayers, it is required to constantly make changes, clarifications and additions. The expansion and complexity of economic relations requires tax administration in the country to be in line with the realities of the modern economy, to clearly regulate taxation, and at the same time to be transparent. In particular, the head of our state said, “You are all aware of the sharp processes taking place in the world today. The complex geopolitical situation in the world, the shortage of energy resources is increasing, the need for food is increasing, and financial resources are becoming more expensive. In such a situation, no matter how difficult it may be, we will resolutely continue economic reforms, fully mobilize domestic capabilities, and further develop the private sector. For this, first of all, we will speed up reforms to improve the business environment.”²⁴³

In fact, the consistent continuation of economic reforms means tax reforms, including reducing the tax burden, simplifying the taxation system, unifying tax types, and at the same time controlling the revenue of taxes on time and, as a result, ensuring economic development. Speaking about tax revenues, we should first emphasize that tax control activities are considered the most important function of tax authorities. After all, it is possible to achieve all the goals and tasks set by the state only by effective and complete collection of taxes and fees and reduction of tax debt, as a result of which it is possible to ensure progress in the path of economic

²⁴² Independent researcher of Kimyo International University in Tashkent. Doctor of philosophy (PhD) in economical sciences. Email: ulajaha12@gmail.com

²⁴³ Decree of the President of the Republic of Uzbekistan, from 29.06.2018 y. № DP-5468, “On the concept of improving the tax policy of the Republic of Uzbekistan”